

**INSON XO'JALIK FAOLIYATINING RIVOJLANISHI VA HUDUDLARDA TABIIY
RESURLARDAN FOYDALANISHNING KUCHAYISHI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15077174>

Komilova Nargizakhon O`rinovna

geografiya fanlari nomzodi, dotsent

Farg`ona Davlat Universiteti

E-mail: komilova nargizakhon @mail.ru76 tel: +998916629551

Inson hayoti mobaynida o'z ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlarning barchasini tabiatdan oladi, ya'ni u tabiat bilan ma'lum darajada munosabatda o'zaro ta'sirda bo'ladi. Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tarixiy jihatdan o'rganish ularning mazmunini to'g'ri tushunishga va kelajakdagi o'zgarishlarni aniqroq, bashoratlashga imkon beradi. Tarixiy manbalarga ko'ra, ular o'rtasidagi o'zaro ta'sir qariyb 3,5 mln yildan beri davom etib kelmoqda.

Eng qadimgi odamlar (arxantrop)ning hayot belgilarini tasdiqlovchi turli qurollar, ayniqsa, toshdan ishlangan qurollarning Sharqiy Afrikada topilganligi bundan darak beradi. Arxeologlarning Janubiy Farg'onadagi paleolit davriga oid Seleng'ur g'oridan 1980 yilda topilgan turli hil oddiy tosh qurollarni (chuq, morlar va boshq.) tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu tosh qurollar 1,4-2,5 mln yil qadimiylikka ega bo'lgan Olduvay (Sharqiy Afrika) va Ubaydiya (Yaqin Sharq,) tosh qurollariga o'xshaydi. Solishtirma tahlillar hamda Seleng'ur g'ori qatlamlarining mutaxassislar tomonidan mufassal o'rganilishi natijalaridan kelib chiqib, ushbu mintaqada bundan 1,1 mln yil muqaddam odamlar yashagan deb tahmin qilish mumkin.

Albatta, shunchalik uzoq, vaqt davomida insonning tabiat bilan bo'lgan munosabatlari kuchli darajada o'zgarib borgan. Birlamchi davrlarda, ya'ni ushbu munosabatlar endigina vujudga kela boshlagan bosqichlarda tabiiy omil inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, qadimgi odamlarning tabiatga qaramligi katta bo'lgan. Lekin vaqt o'tishi bilan inson o'zining aqliy va jismoniy qobiliyatlari, moddiy madaniyatini takomillashtirib, tabiatga o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Dastlab oddiy tosh qurollar va keyinchalik olovning ixtiro qilinishi (bundan 300-400 ming yil avval) tufayli insonning tabiiy resurslardan foydalanish imkoniyatlari kengaydi.

Hozirgi zamon odami neoantropning shakllanishi va rivojlanishi, hamda, dastlabki ijtimoiy jamiyat ibtidoiy jamoa tuzumi vujudga kelishi uchun insoniyatga juda uzoq muddat bir necha yuz ming yillar zarur bo'lgan. Ushbu tuzumda o'zlashtiruvchi xo'jalik turi o'zining eng yuqori samarasiga erishdi, u asosan jamoa bo'lib ov qilish va mehnat taksimoti natijasida ro'y berdi. Shu bilan jamiyatning eng uzoqqa cho'zilgan (3 mln yildan ko'proq,) rivojlanish davri paleolit (qadimgi tosh asri) tugaydi. Bu davrda odam o'zining xo'jalik

faoliyatida tabiatdagi tayyor boyliklardan foydalangan, tabiat bu davrda unchalik zarar ko'rmagan, faqat ayrim hayvonlar miqdorining biroz kamayishi ro'y bergan.

Yangi tosh asriga (neolit, bundan 10 ming yil ilgari) kelib, aholi sonining oshishi, ko'plab oziq-ovqat tayyorlashni taqozo etardi. Shu davrdan boshlab, ibtidoiy odamlarning chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan guruhlar O'rta dengiz, Janubiy va O'rta Osiyoda tarkib topdi. Yevrosiyaning o'rmon mintaqasida ko'proq, chorvachilik taraqqiy qila boshladi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining taraqqiy qilishi tufayli insonning atrof muhitga ta'siri sezilarli oshdi. Avvalo o'rmonlarning qisqarishi hisobiga (G'arbiy Yevropa) qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning maydoni kengayib bordi. Sharqiy Yevropada dashtlarni haydash bundan 2 ming yil ilgari boshlangan edi. O'rta Osiyoda daryo vodiylari, deltalari, konus yoyilmalaridagi yerlar haydalib, sug'oriladigan dehqonchilik bilan shug'ullanishga kirishildi. Ushbu joylarda hozirgi vohalarning vujudga kelishiga ilk bor asos solindi.

O'zbekistonda eramizdan avvalgi I ming yillikda rudadan mis eritib olinib, undan turli mehnat qurollari yasash boshlandi. Dehqonchilikda donli ekinlar ekish, ko'lmak (liman) uslubida bostirib sug'orish (Nurota tizmasining shimoliy yonbag'ir etaklarida) ishlari boshlandi. Uy hayvonlarini boqish va ko'paytirish bilan (Janubiy Orol bo'yi hududlarida) shug'ullanila boshlandi. Bronza davriga kelib, metall omochning qo'llanila boshlanishi dehqonchilikning tezkorlik bilan rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi.

Eramizdan avvalgi II ming yillikda Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Qashqadaryo etaklarida ko'lmak uslubida yerlar sug'orila boshlandi (1-uyi Zarafshon etaklaridagi Zamonbobo ko'li atrofida, 1-uyi Amudaryoda Suyargan, Jonbosqal'a va boshq.). Dastlab uncha katta bo'lmagan oddiy sug'orish ariqlari qazildi.

Eramizdan avvalgi I ming yillikda tog'li hududlarda temir rudasi eritilib, undan ilk bor temir olinib boshlangan. Mis, bronza, temir va boshqa metallarni quyish avvallari «yog'och ko'mir» asosida amalga oshirilgan, keyinchalik qo'ng'ir ko'mirdan foydalanishga o'tilgan. Mezolit (12-15 ming yil avval), neolit (10 ming yil avval), bronza va eramizdan avvalgi II-I ming yilliklarda tabiat bilan ibtidoiy jamoa o'rtasidagi munosabatlar umuman kuchsiz va o'rtacha o'zgarishlar darajasida sodir bo'lgan. Albatta, o'sha davrda tabiatdagi bu o'zgarishlar to'la qayta tiklanish xususiyatiga ega bo'lgan holda yuz bergan. Urug'-qabila tuzumida (eramizdan avvalgi VI-IV asrlar) Quyi Amudaryo, Quyi Sirdaryo, Zarafshon daryosining etaklarida, Farg'ona vodiysining konus yoyilmalarida katta maydonlarda sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanilgan. Eramizdan avvalgi I ming yilliklarning o'rtalarida O'rta Osiyo sug'orish tarixida yangi bosqich boshlandi magistral kanallar qazilib, ularning bosh qurilmalari yaratildi, daryo deltalarida katta maydonlarni muntazam sug'orishga o'tildi. Ko'pgina hozirgi yirik sug'orish kanallari kushonlar davrida (I-IV asrlar) qurilgan. Masalan, Toshkent vohasidagi Bo'z suv, Salor, Zarafshon vohasidagi Zeki Angor, Zeki Tuyatortar, Buxoro vohasidagi Shohrud, Romitanrud, Xorazm vohasidagi Qirqiz, Chermen'yob va boshq. Oqchadaryo deltasi janubiy qismining Qizilqum bilan tutashgan

joyida Ayozi qal'a, Qirg'iz, Oqchako'l oralig'ida bir necha o'nlab tuproq qal'alar bir-biri bilan hozirda qumliklar va ko'chib yuruvchi qum massivlari bilan ajralib turadi.

Bu yerlarda o'zlashtirilishdan oldin harakatdagi qumlar bo'lmagan, ularning vujudga kelishi qadimda yerlarni sug'orishda eroziya omilini e'tiborga olmaslik va yaylovlardan noto'g'ri foydalanish bilan bog'lik. Xuddi shu sababli Buxoro va Qoraqo'l vohalarining atroflarida, shuningdek Poykent hududida qatta maydonlarda sho'rhoklar va ko'chib yuruvchi qumlar tarkib topgan.

Tog' etaklari va yonbag'irlari ibtidoiy, keyinchalik urug'-qabila va feodal tuzumlarda mevalar va yem-xashak yig'ish, qurilish uchun yog'och, yokilg'i uchun o'tin, metall eritish uchun «pista ko'mir» tayyorlash, ovchilik qilish uchun makon bo'lib xizmat qilgan.

O'rta Osiyoda VII asrdan boshlab, feodal davlatlarning tarkib topishi yangi shaharlarning bunyod etilishiga, hunarmandchilikning, sug'oriladigan va lalmi dehqonchilikning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. O'sha davrlarda ko'pgina sohalarning asosini yog'och tashkil qilgan, u yokilg'i, qurilish, hunarmandchilik va boshqalarda keng foydalanilgan. Shuning uchun xam bo'lsa kerak, Farbiy Tyan-Shan tizmalari, Zarafshon, Nurota, Turkiston, Hisor-Oloy va boshqa tog'larning yon bag'irlaridagi o'rmonlar ayni o'sha kezlarda ko'plab kesilgan. Ayniqsa, archa daraxtiga qiron keltirilgan, chunki archa ishlovga oson beriladi, chirishga juda ham barqaror archa imoratsozlikda, ko'prik qurilishida, daryo va soylar qirg'oqlarining yuvilishiga qarshi to'siqlar yaratishda, hunarmandchilikda ko'plab ishlatilgan.

Samarqand, Shahrisabz, Buxoro, O'ratepa, Xo'jand, Toshkent, Qarshi, Farg'ona vodiysi shaharlari va boshqa ko'plab tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan. O'rta asr shaharlaridagi deyarli barcha imoratlarning yog'och qismi tog'lardan qeltirilgan archadan qurilgan. O'rmonlarning katta qismidan «yog'och ko'mir» tayyorlashda foydalanilgan. Bu maqsadda, ayniqsa, pista daraxti ko'plab ishlatilgan. Shuning uchun, ham O'zbekistonda «yog'och ko'mir» asosan «pista ko'mir» deyilgan. Hozirgacha tog'li joylarda «kura» (ko'mir tayyorlangan joy)larning o'rni yaxshi saqlanib qolgan. «Pista ko'mir» asosida temir, cho'yan, mis va boshqa metallar quyilgan, qurol-aslaha, xo'jalik asbob- usqunalari va boshqa buyumlar tayyorlangan.

O'rta Osiyo tog'larida odatda 500-600 m dan 1200 m balandlik orasida bir vaqtlar ko'plab o'sgan pista daraxti endilikda nihoyatda siyraklashgan, ba'zi joylarda yoq, darajada, faqat Bobotog' tizmasi, Samarqand atrofidagi tog'larda va boshqa joylarda kichik maydonlarda saqlanib qolgan.

Tog' yonbag'irlari eroziya qalqoni o'simliklarning yo'qolib borishi natijasida yog'in sochin, qor erishi va ayniqsa, jala eroziyasi ta'sirida yuvilish jarayoniga ko'p uchragan. Tog' relyefining o'ydim chuqurlik darajasi orta borgan, jarlar o'rni keyinchalik soyliklarga, surilmalar botiqlarga aylangan, yuzaki va chuqurlama eroziya natijasida tuproq, qatlami qatta qalinlikda yuvilib ketadi, shuning uchun past tog'lar va adirda endilikda tuproq qatlami nihoyatda yupqalashib ketgan, tog' jinslari ochilib qolgan, tuproqning mexanik tarkibi buzilgan. Yalong'ochlanib qolgan tog' yon bag'irlarida sel hodisalari faollashib, tog'

oldi tekisliklarining uydim chuqurlashishi kuchaygan. Eroziya hodisalarining uzoq vaqtlar mobaynida muntazam ta'siri oqibatida tog' etaklari va yonbag'irlarining hozirgi landshaftlari shakllana brogan.

1.Nargiza Уриновна Комилова. Влияние этноэкологических культур на экосистему Ферганской долины. Вестник науки и образования 2 (12 (36)), 73-75, <https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-etnoekologicheskikh-kultur-na-ekosistemu-ferganskoy-doliny>

2.Nargiza Urinovna Komilova. Territorial features of the organization of settlements. 3/6. 809-813. 2022. <https://cyberleninka.ru/article/n/territorial-features-of-the-organization-of-settlements>

3.N.U Komilova. Ethnogeographic aspects of social environmental problems.3/6.12-18.2022. <https://cyberleninka.ru/article/n/ethnogeographic-aspects-of-social-environmental-problems>

4.Komilova Nargiza Urinovna. Gradual study of geographic featuresof ethno-ecological culture. European science review, 82-84. <https://cyberleninka.ru/article/n/gradual-study-of-geographic-featuresof-ethno-ecological-culture>